

UO'T: 632.4:581.5(575.1)

OROLBO'YI MINTAQASIDA SAKSOVULLARDA UN SHUDRING KASALLIGI TARQALISHI VA UNING OQIBATLARI

Xasanov Jamshid Davletbayevich

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada Orolbo'yi hududida iqlim o'zgarishlari sharoitida saksovullarda un shudring kasalligining tarqalishi va oqibatlarini yoritilgan. Kuzatuvlar natijasida Surgil hududida oq saksovulzorlar maydonida un shudring kasalligi tarqalganligi aniqlandi. Kasallikni keltirib chiqaruvchi asosiy ekologik omillar ko'rsatilib, unga qarshi samarali kurash chorasi sifatida fungitsid qo'llash tajribasi bayon qilindi.*

Kalit so'zlar: *Orolqum, saksovul, un shudring, iqlim o'zgarishi, fungitsid, ekologik monitoring*

Аннотация: *В статье освещается распространение и последствия мучнистой росы на саксаулах в условиях изменения климата в Приаралье. В результате наблюдений было установлено, что мучнистая роса распространена на площади белых саксаулов в Сургильском территория. Указаны основные экологические факторы, вызывающие заболевание, и описан опыт применения фунгицидов в качестве эффективной меры борьбы с ним.*

Ключевые слова: *Аралкум, саксаул, мучнистая роса, изменение климата, фунгицид, экологический мониторинг*

So'nggi yigirma yil ichida O'zbekistonda, ayniqsa Orolbo'yi hududida iqlim o'zgarishlari keskin tus olmoqda. Bahor va yoz oylarida g'ayritabiiy issiq davrlar chastotasi va intensivligi ortib bormoqda. Natijada havo harorati +40°C dan yuqori bo'lgan kunlar soni keskin ko'paygan. Orolqum hududida g'ayritabiiy issiq kunlar soni 25 kundan 45 kungacha, quruq kunlar esa 20–30 kungacha yetmoqda. Yog'ingarchilikning ortishi fonida esa Orol dengizi tubida barpo etilgan 1 mln gektardan ortiq saksovulzorlar (Surgil, Urgu, Aqpetkey)da un shudring kasalligi va hasharot zararlanishi kuzatilmoqda.

Cho'l o'simliklari, jumladan oq va qora saksovul, qandim, yulg'un va cherkez turli zamburug' kasalliklari bilan zararlanishi mumkin. Ularning ichida eng xavflisi un shudring *Leveiulla taurica* hisoblanadi. Kasallik qora va oq saksovul, cherkez hamda yantoqda keng tarqalgan. Ayrim yillarda, ayniqsa yog'ingarchilik ko'p bo'lgan davrlarda, zararlanish darajasi 80–90% gacha yetadi. Turli yoshdagi saksovullar iyun–iyul oylarida 70–85% hollarda kasallikka chalinadi. Kasallik natijasida o'simliklarning novdalari quriydi, o'sish sustlashadi va ayrimlari butunlay nobud bo'ladi.

Surgul hududidagi kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, 950 ming gektar maydondagi saksovullarning 30 ming gektarida un shudring keng tarqalgan. Natijada o'simliklarning o'sishi keskin sustlashgan va ko'plab novdalar qurib qolgan.

Kasallikka qarshi kurashishda kimyoviy vositalardan foydalanish maqsadga. Fungitsid kimyoviy preparati yaxshi samarali natija bergan. Ushbu preparat tarkibida tebukanzol (125 g/l) va triadimefon (100 g/l) mavjud bo'lib, 0,5 l/ga me'yorida qo'llaniladi. Preparatning qo'llash vaqti – sentyabr oyida, saksovul meva berish davriga to'g'ri keladi. Bu usul urug'lar orqali keyingi yillarda kasallikning keng maydonlarga tarqalishini oldini olishga yordam beradi.



Un shudring (*Leveiulla Taurica*) kasalliklari bilan zararlangan saksovulzor maydoni.

Un shudringning kuchayishiga bir qator omillar sabab bo'lmoqda. Jumladan, aprel-may oylarida kechki haroratning pasayishi, yog'ingarchilikning ortishi, yer ostidan gaz qazib olish jarayonida suv sathining pasayishi hamda yo'llarda texnikalarning ko'pligi tufayli chang-to'zon ko'tarilishi o'simliklarning fotosintez jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur sharoitda kasallikning oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi: Orolqum hududida iqlim o'zgarishini o'rganish maqsadida kamida uchta mini-meteorologik stansiya tashkil etish, yashil qoplamalarni barpo etishda optimal muddatlarni aniqlash uchun doimiy kuzatuv olib borish, atmosfera yog'inlari, shamol, namlik va bug'lanishni muntazam monitoring qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanov B., Fitopatogen zam burugiam ing tarqalish usullar Toshkent, 2019
2. George N. Agrios — Plant Pathology (5th ed.) — fitopatologiyaning klassik darsligi, kasallik etiologiyasi, patogenez va himoya choralariga keng nazar. 2005
3. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi agentligi ma'lumotlari. Toshkent, 2022.
4. "Iqlim o'zgarishi va cho'l hududlarida o'simliklarning zararlanishi" – ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent, 2021.
5. Braun U., Cook R.T.A. Taxonomic Manual of the Erysiphales (Powdery Mildews). CBS Biodiversity Series, 2012.